



## Forobiy Axloqiy-Falsafiy Qarashlarining Shakllanishida Davrning Ijtimoiy-Tarixiy Sharoitlari

**Hasanov Mirshod Nu'monovich**

*Texnologiya, menejment va kommunikasiya institute, "Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar" kafedrası, v.b. dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning axloqiy-falsafiy qarashlarining shakllanishi, u yashagan davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhitining mazkur qarashlarga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Forobiy asarlarida inson kamoloti, axloqiy fazilat, adolat va baxt-saodat g'oyalari qanday falsafiy asosga ega ekani hamda ular Sharq uyg'onish davrining umumiy intellektual oqimlari bilan qanday uyg'unlashgani yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** "Adolat va birlik", "axloqiy kamoloti", "shaxs barkamollik", "Aviasaf", "Aviyeshe", "Avennasar" va "Farabi".



This is an open-access article under the CC-BY 4.0 license

### Kirish

Bugungi kunga qadar insonni axloqiy kamoloti va shaxs barkamollik masalasi jamiyatshunos olimlar diqqat markazida bo'lib kelganligi bu muammoni o'rganish qanchalik darajada dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi. Darhaqiqat, bugun biz shiddat bilan taraqqiy etayotgan ma'naviy evrilishlar davrida yashayapmiz. Shubhasiz, axborot bo'hronlari tufayli tobora torayib borayotgan asrimizda ma'naviyat masalasi, qolaversa, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sir emaski, mustaqillikka erishganimizdan keyin jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning ma'naviy merosiga katta e'tibor berila boshlandi. O'rta asr musulmon Sharqining muazzam siymolaridan biri Abu Nasr Forobiy ham ana shunday zotlardan hisoblanadi. Zero, mutafakkir qoldirgan ma'naviy-madaniy va axloqiy meros asrlarga tatigulik ahamiyatga molik. Allomaning falsafiy-ma'rifiy qarashlarini milliy madaniy merosimizning asosini tashkil qilgan barkamol insonni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati sifatida e'tirof etar ekanmiz, ularni har tomonlama va tizimli tarzda tadqiq etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. VII asr o'rtalaridan Markaziy Osiyoning bir qismi ulkan saltanatga aylangan arab xalifaligi tarkibiga kirdi. Yagona siyosiy maydonga birlash- tirilgan bu ulkan mintaqa IX-XII asrlarda ulkan madaniy ko'tarilishni boshdan kechirdi, bu davrda yetishib chiqib, ijod qilgan ko'plab mutafakkir va olimlarning kitoblari jahon madaniyati xazinasiga qo'shildi. Ilmiy ijodda estetik unsurlarni o'ziga singdirib olgan falsafa va fan bu davrda kuzatilgan qudratli madaniy harakatning ajralmas qismiga aylandi. Bu unsurlar ishlab chiqilishining boshlang'ich nuqtasida Abu Nasr Forobiy turadi. U tomonidan berilgan turtki zamonaviy tabiatshunoslik tadqiqotlariga asos bo'lib xizmat qildi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, aynan o'rta asrlardagi arab tilli falsafa qadimgi yunon falsafasining birinchi va asl merosxo'ri bo'ldi, ayni paytda, uni ijodiy rivojlantirib, yangi yutuqlar bilan boyitdi. Bu ma'noda, Abu Nasr Forobiy Sharq va Yevropa madaniyatlarini bog'lovchi ko'pri bo'ldi, desak yanglishmaymiz.

Abu Nasr Forobiy XV asrdan e'tiboran Rossiyada "Aviasaf" va "Aviyeshe", Yevropada

“Avennasar” va “Farabi” nomli bilan mashhur bo‘lgan. O‘zini to‘laligicha bilim olish va fanga xizmat qilishga bag‘ishlaganligi uchun ham zamonasining deyarli barcha fanlarini chuqur o‘zlashtirishga erishdi. U jahon ilm-fani va falsafiy bilimlar tizimida o‘ziga xos fanlar tasnifi, mukammal davlat modelini yaratganligi bilan alohida nom qozondi. Shu boisdan ham uning ma’naviy-madaniy merosi qomusiy xarakterga ega bo‘lib, u yashagan davr ruhiyati va uslubini aks ettiradi. Abu Nasr Forobiy (taxallusi, to‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O‘zlog‘ at-Turkiy, 873-yili Forob shahrida tug‘ilgan, 950-yili Damashqda vafot etgan, Damashqdagi “Bob as-Sa’ir” qabristonida dafn etilgan) – jahon madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan mutafakkir, O‘rta Osiyolik taniqli faylasuf, 70 dan ortiq tilni bilgan qomusiy olim hisoblanadi. O‘rta asrlardagi ma’lum ilmiy kashfiyotlar qatorida, umuman, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari ma’rifiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkurining rivojlanishi ham uning nomi bilan bog‘liq. Zamonasining barcha fanlarini mukammal o‘rgangan va ularning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan, yunon faylasuflarining kitoblariga bergan sharhlari bilan ularning Sharq o‘lkalarida keng yoyilishiga turtki bo‘lgan Abu Nasr Forobiy Sharqda yuksak baholanib, “al-Muallim as-Soniy” (Arastudan keyingi “ikkinchi muallim”) va “Sharq Arastusi” nomlarini olgan. Abu Nasr Forobiyning Arastu asarlariga yozgan sharhlari nafaqat Sharqda, balki G‘arbiy Yevropada ham qadimgi Yunon falsafasining, jumladan, Arastu ta’limotining keng tarqalishida muhim rol o‘ynadi. Xususan, Yevropada Aristotel asarlari, ular lotin tiliga tarjimaqilingunga qadar, Sharq peripatetiklari: Al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Rushd kitoblari orqali o‘rganilgan. Abu Nasr Forobiyning Arastu asarlariga yozgan sharhlarining ahamiyatini Ibn Sinoning tarjimai holida aytgan quyidagi so‘zlari orqali bilish mumkin: “Arastu asarlarini qirq marotaba o‘qib chiqdim, lekin tushuna olmadim. Bozordan Abu Nasr Forobiyning Aristotel asariga yozgan sharhini sotib olib, keyin tushundim”. Bundan ma’lum bo‘ladiki, dastlab yevropaliklar Aristotel ta’limotini Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-Kindiy sharhlari orqali o‘rganishgan, keyinchalik Arastuning “Analitika”, “Topika”, “Siyosat” kabi asarlari Yevropa tillariga tarjima qilingan[4.81.]. Shu boisdan ham A.V.Koyrening “Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushdlar lotin G‘arbining ustozlari va tarbiyachilari bo‘lgan edirlar...” va “...agar shu faylasuflar bo‘lmaganida Arastuning “Metafizika”, “Fizika” kabi asarlari lotinlashgan (yunon tili va yunon falsafasini bilmaydigan) G‘arb uchun tushunarsizligicha qolib ketgan bo‘lar edi.”, degan edi.

Abu Nasr Forobiyning ma’naviy madaniyatga doir qarashlarining tarixiy-ijtimoiy va falsafiy manbalarini tadqiq etish Sharq Uyg‘onish davrida erishilgan madaniy, ijtimoiy taraqqiyotni chuqurroq o‘rganishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Muhammad ibn Tohir ibn Bahrom Abu Sulaymon Mantiqiy Sijistoniyning “Sivoni-ul-hikma” (“Hikmatlar xazinasini”) kitobi Sharq ulamolari orasida beqiyos shuhrat qozongan. Ammo bu asarning to‘liq matni bizgacha yetib kelmagan. Sijistoniyning shu kitobidan saylab olingan muxtasar ikki kitob bizgacha yetib kelgan. Sulton Mahmud va o‘g‘li Mas‘udning zamondoshi Abul-Fazl Bayhaqiydan bir asr keyinroq, Umar Hayyom zamonida (XII asrda) yashagan Abul Hasan Zahiriddin Bayhaqiyning “Tatimma as-Sivoniul-hikma” (“Hikmatlar xazinasini”ga qo‘shimcha”) asari bizgacha to‘liq yetib kelgan. Unda Sharq mutafakkirlaridan 111 alloma haqida, jumladan, al-Kindiy, Hunayn ibn Is‘hoq, Matto ibn Yunus, Sobit ibn Qurro, Abu Zayd Balxiy, Abu Nasr Forobiy, Yahyo ibn Odiy, Beruniy, Ibn Sino, Abul-Xayr Hammor (Nizomiy Aruziy Samarqandiy uni tib ilmida 2-Buqrot (Gippokrat) deb ataydi), Abul-Vafo Buzjoni, Ibn Sino va shogirdlari Baxmanyor, Ahmad Abu Abdulloh Mas‘umiy, Abdul-Vohid Juzjoni, Umar Hayyom, Rashididdin Vatvot, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad ibn Abdul-Karim Shahrisoniy, 2- Arastu deb nom olgan Abul-Barakot, Hayyomning shogirdi Sharafuz-zamon Adib al-Iloqiy-Turkistoniy va boshqalar ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar hamda mazkur allomalarning hikmatli so‘zlari keltirilgan. Bu asarni akademik Ziyo Buniyotovning shogirdi, sharqshunos Sevinch Bagirova arabchadan ruschaga tarjima qilgan. Zahiriddin Bayhaqiyning “Tatimma Sivoni-ul-hikma” asarida Abu Nasr Forobiy haqida quyidagi fikrlarni o‘qiydiz: “Shayxul-akram, Ustozi Soniy, al-Hakim, Muhammad ibn Muhammad ibn Uzloq ibn Tarxon Abu Nasr Forobiy Turkistonning Faryobidan (forsda ham Faryob bor) zamonasida va avval o‘tganlar orasida tengsiz edi. Islomiyatgacha ikkita va islomiyatdan so‘ng ikkita hakim – faylasuf bo‘lgan. Bular: Arastu va Iskandar (Aleksandr) Afrodiziy, islomiyat davri- da esa Abu Nasr va Abu Ali (Ibn Sino)dir”. Abu Nasr vafotidan so‘ng 30 yil keyin Abu Ali tug‘ilgan. Abu Ali o‘zini Abu Nasrning shogirdi ekanligini aytgan. Ibn Sino o‘zi yozgan tarjimai holida “Arastuning “Bada’-at-Tabia” (“Metafizika”) asarini qirq marta o‘qib, tushunib bo‘lmas ekan, deb afsuslanganini, so‘ng Abu Nasr Forobiyning “Arastuning “Metafizika”si maqsadlari haqida” asarini o‘qib, ko‘zi ravshan

ochilganini, Ollohga shukrona aytib, ko‘p xayr-ehsonlar qilganini yozadi. Ibn Sinoning o‘zi yozgan va shogirdi Abdul-Vohid Juzjoniy davom ettirgan tarjimayi holi faqat shu “Tatimma” asarida bizgacha yetib kelgan.

“Abu Nasrning juda ko‘p asarlari bo‘lib, – deb yozadi Z.Bayhaqiy, – ko‘pchiligi Shomda saqlanib qolgan (o‘sha vaqtda Turkistonga yetib kelmagan). Bular: “Al-Muxtasar fil-mantiq”, “Kitob al-Burxon” (1-Analitika), “Arou ahli madinatul-fozila”, “Ta’liqot” (“Talqin”, “Germenevtika”), “Sharhi Uqlidus”, “Sharhi kutub Arastu”, “Kitob an-Nafs” (“Ruh va jon haqida”), Aflotunning “Timey” asariga sharh”, “Kitob at-Tafsir”, “Kitob fi-l- musiqa” va boshqalar. (Abu Nasr Forobiyning to‘liq asarlari ro‘yxati atoqli sharqshunos Abdusodiq Irisov Mahkam Mahmudov bilan hamkorlikda nashr etgan “Fozil odamlar shahri” to‘plamida Abu Usaybiya, Ibn Hallikon asarlaridan olib keltirilgan). Kamina (Zahiriddin Bayhaqiy) Roy shahrida naqiblar raisining kutubxonasida Abu Nasr Forobiyning o‘z qo‘li bilan yozgan va shogirdi Yahyo ibn Odiy qo‘li bilan ko‘chirilgan asarlarini ko‘rganman”. “Axloq-ul-hukamo” (“Hakimlar axloqi”) kitobida o‘qdimki, (buvay- hiylar saltanatining vaziri) Sohib Ismoil ibn Abbod (Shomga, Abu Nasr Forobiyga) juda ko‘p sovg‘a-salomlar, tuhfalalar yuborib, Royga kelishni iltimos qilgan). U “Kim alloma Abu Nasr Forobiyning mening huzurimga boshlab kelsa, haddan ziyod ehsonlar beraman!” degan. Ammo Abu Nasr mol-dunyo va shon-shuhratga qiziqmasdi. Shu sababli bir marta u ataylab, juldur kiyimda, qo‘lida o‘zi yasagan cholg‘u asbobi – ud bilan Royga kelib, davlatmandlar (vazirga yaqin laganbardorlar) bazm qilib o‘tirgan xonaga kirdi. Bu yerda o‘tkir so‘z ustalari, sho‘x va yengiltak mehmonlar Abu Nasr Forobiyga (joy ham ko‘rsatmay), u eshik tagida o‘tirganida (taklifsiz kelgan befarosat, sahroyi, jirkanch odam deb) uni masxara qildilar, so‘zlarini ham eshitmadilar. Ammo Abu Nasr vazirning yaqinlari bazmida masxara va haqoratlar chidab, barchalari ko‘p sharob ichganidan mast-alast bo‘lib qolguncha o‘tirdi. So‘ng xurjunidan cholg‘u asbobini olib, shunday kuy chaldiki, mehmonlar dong qotib uxlab qoldilar. Abu Nasr cholg‘uning taxtasiga “Bu yerga Abu Nasr Forobiy keldi, sizlar uni masxara qildinglar” deb yozib, chiqib ketdi. Shu ketishda Bag‘dodga yetdi. Sohib Abbod va yaqinlari hushlariga kelib, kambag‘al mehmonni masxara qilganlarini eslab, afsuslandilar. Bir mutrib (sozanda) udga yozilgan so‘zlarni ko‘rsatdi. Vazir Abu Nasr Forobiy kelib-ketganini bilgach, uni topib kelish uchun ortidan odam yubordi. Ammo topolmadilar. Vazir Sohib Abbod bu voqeadan umr bo‘yi afsuslanib, hijolat bo‘lib yurdi.

Kamina (Zahiriddin Bayhaqiy) ustozimdan (Qutbiddin Muhammad Marvoziy) eshitgan edimki, Abu Nasr (yoshi yetmishdan oshganida) Damashqdan Asqalonga borayotgan vaqtda karvonga qaroqchilar hujum qilgan (karvon kichik, soqchilari oz bo‘lsa kerak), Abu Nasr ularga otlarimni, qurollarimni, buyumlarimni olinglar va yo‘lni ochib qo‘yinglar dedi. Qaroqchilar ko‘nmadilar. Abu Nasr va hamrohlari otlaridan tushib, qilichlari bilan jangga kirishganlar. Karvon ahlidan barcha halok bo‘lgan (qaroqchilardan ham bir qismi o‘lgan bo‘lsa kerak). Shom amiri (Sayfuddavla) bu xabardan dahshatga tushib, qaroqchilarni tutib, Abu Nasrning qabri oldida barchasini salbga tortdi”. Aytishlaricha, Abu Nasr Forobiy ismli Samarqandlik shifokor ham bo‘lgan, u faylasuf emas. Faylasuf Muhammad Abu Nasr Forobiy aytar edi: “Falsafani o‘rganish uchun odam yoshligidan bilimlarga chanqoq, xushxulqli, yaxshi tarbiya ko‘rgan, Qur‘onni, til (adab) va shar‘iy (xayrli) ilmlarni o‘rganishi, tirikchilik tashvishidan forig‘ (xoli, ozod) bo‘lishi kerak”. Abu Nasr ilm va olimlarni hurmat qilar, ilmni boylik, foyda g‘arazi bilan emas, beg‘araz o‘rganish kerak, der edi. Ilmdan xudbinlik maqsadida foydalanuvchilar yolg‘onchi, soxta faylasuf bo‘ladilar, chunki pul va mol-dunyo bilan yolg‘onni, soxtalikni oqlab bo‘lmaydi. Daraxtning kamoloti shirin meva berishda bo‘lganidek, inson komilligi go‘zal xulqi bilandir. O‘zini hammadan baland qo‘yuvchi (takabbur, nokamtar) odam kamolotga erisholmaydi. Alloma ilmni va uning asosidagi donolik, aqlni baxtga erishishning asosiy vositasi sifatida talqin etadi; uningcha, aql va fan yordamida shunday ma‘naviylik darajasiga ko‘tarilish mumkinki, bu ma‘naviylik avlodlar o‘limidan keyin ham insoniyat uchun xizmat qiladi.

Ibn al-Kiftiy (Ali ibn Yusuf) “Tarix-ul-hukamo” (“Hakimlar tarixi”) kitobida yozishicha, Abu Nasr har bir so‘zning haqiqatini besh modda (xitoba – ritorika, qiyos – sillogizm, burhon – isbotlash, jadal – munozara, talqin – germenevtika – bormoniyus) bo‘yicha aniqlar ekan. Abu Nasr mantiq ilmlarida o‘tkir bo‘lib, al-Kindiy va boshqa faylasuflarning xatolarini ham ko‘rsatgan. U “Ixso-ul-ulum” (“Ilmlarning xosiyatlari”) kitobida geometriya, astronomiya, fizika, tilshunoslik, ilohiyot, kimyo, mexanika (ilmi xiyal), optika (ilmi manozir), fiqh, kalom ilmlarida nimalar o‘rganilishini

ko'rsatadi. Zahiriddin Bayhaqiyning "Tatimma as-Sivoni-ul-hikma" asarida yuzdan ziyod Sharq allomalari ijodi haqida ma'lumotlar berilgan. Bu asar "Tatimma" deb atalishining sababi shuki, Zahiriddin Bayhaqiydan bir asrcha avval yashagan Abu Sulaymon ibn Tohir ibn Bahrom as-Sijistoniy o'zigacha yashagan yuzdan ziyod allomalar hayoti, tarjimai holi bayon qilingan "Sivonal-hikma" asari bilan shuhrat qozongan. Bu allomaning boshqa mashhur asarlari Nizomiy Aruziy Samarqandiyning "Majma-un-navodir" ("Nodir haqiqatlar to'plami") asarida eslab o'tilgan. "Ammo bir kuni asr vaqtida kitob sotuvchilarning oldiga borib qoldim. U yerda Muhammad ismli dallol bir kitobni qo'lida tutganicha maqtar edi. Uni menga ham ko'rsatdi. Men "Bu ilmdan foyda yo'q, degan xayolda unga qiyo boqqim ham kelmay, rad qildim. Dallol menga "Bu kitobni sotib ol, narxi arzon, uch dirhamga beraman, egasi pulga muhoj", dedi. Men kitobni sotib oldim. (Varaqlab) qaragam, bu Ustozi Soniy deyilgan faylasuf Abu Nasr Forobiyning "Arastu "Moba'da at-Tabia" maqsadlari haqida" yozgan asari ekan. Uyga kelib, tezda uni o'qishga kirishdim. Kitob dilimda yod bo'lib qolganligi sababli uning maqsadlari menga darhol ayon bo'ldi. Bundan juda xursand bo'lib ketdim va Tangri-taologa shukrona aytib, o'sha kunning ertasigayoq kambag'allarga ancha narsa sadaqa qildim".

Abu Nasr Forobiyning "Arastu "Metafizika"si maqsadlari haqida" asari, afsuski, bizgacha to'liq yetib kelmagan. Undan saqlanib qolgan kichik parchani arabchadan ruschaga sharqshunos L.A.Kaziberdov, o'zbekchaga M.Mahmudov tomonidan tarjima qilingan. M.Mahmudov bu asarning yo'qolgan qismlarini Arastu "Metafizika"si asosida tiklashga harakat qilib, davomini yozib to'ldirgan. Akademik Muzaffar Xayrullayev "Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri" nomli kitobida "Uyg'onish davri" tushunchasining mazmun va mohiyatini, bu davrga xos xususiyat va qonuniyatlarini oydinlashtirib, bunday yozadi: "O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari VIII-X asrlarda xulafosi roshidiyn (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali ibn Abu Tolib) davrida, ummaviylar (Muoviya, Yazid, Umar ibn Abdul-Aziz, Abdul-malik ibn Marvon) davrida, abbosiylar (Abdulloh ibn Abbas, Mansur, Mahdiy, Xorun ar-Rashid, al-Ma'mun, Vosiq, Mutavakkil) davrlarida xalifalikning juda katta hududlarida turli millatlar va turli dinlarga (zardushtiylik, moniylik, yahudiylik, xristianlik dinlariga) mansub xalqlar o'rtasida o'zaro qirg'in urushlarga chek qo'yilib, islom dini tolerantligi asosida o'zaro savdo-sotiq, iqtisodiy, madaniy sohalarida aloqalar rivojlandi. Turli xalqlarning o'zaro tinch-totuv yashashini asoslovchi islomiy ilm-fanlar bilan shug'ullanuvchi muhaddislar, mutakallimlar, fiqh (qonunshunoslik) olimlari – faqihlar, faylasuflar yetishib chiqdilar".

Abu Nasr Forobiy yashagan davrda Qadimgi Misr, Hind, Yunon, Rum ilm-fanlariga doir nodir asarlarni tarjima qilish va sharhlash keng yo'lga qo'yildi. Diniy qarashlari turlicha bo'lgan suryoniy Hunayn ibn Is'hoq va uning o'g'li Xarronlik Sobit ibn Qurro (Beruniy bu olim asarlariga ko'p murojaat qiladi), Matto ibn Yunus, eronlik Abdulloh ibn Muqaffa, arab Yaqub ibn Is'hoq al-Kindiy, fors Abu Bakr Roziy, O'rta Osiyolik Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Muhammad al-Buxoriy, Muhammad Abu Nasr Forobiy, uning shogirdi Yahyo ibn Odiy, uning shogirdi Abu Sulaymon Sijistoniy, adab ilmlari ustozlari, filologlar Asmoiy, Xalil ibn Ahmad, Abu Usmon al-Johiz, Abu Zayd Balxiy, Jayhoni, Balazuriy, Narshaxiy, Ibn Sino, Baxmanyor, Abu Xayyon at-Tavhidiy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Bakr Xorazmiy, Abu Mansur asSaolibiy, Abul-Faraj Isfaxoniy kabi allomalarning ijodi gullab-yashnaganligi sababli N.I.Konrad, M.Xayrullayev, Ye.E.Bertels, Adam Mes, V.M.Jirmunskiy, F.Sulaymonova, R.Bahodirov, M.Mahmudov kabi olimlar bu davrni Sharq musulmon Uyg'onish davri deb atashga moyillik bildiradilar.

Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida islom dini va shariati asosida jamiyat hayotida tinch-totuvlik, adolat o'rnatilgani, qozilarning adolati maqtaladi: "Yana Sa'id ibn Xalaf al-Balxiyni 213-yili, jumadul-avval oxirida (828-yil, 16-avgust) qozilikka tayinladilar. Bu kishi qozilikni shunday olib bordiki, Xudoi taoloning yaratgan bandalariga adolat, insof va shafqat qilish borasida uni misol qilib ko'rsatar edilar. U yaxshi qonun-qoidalar o'rnatdi. Jumladan, kuchli (boy-badavlat) kishi zaif kishiga zulm o'tkazmasin uchun bu to'g'onlarni qurdirib, Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsim qilishni u asosladi Yana sulton Ahmad ibn Ismoil Somoniy davrida (rahmatli) Ahmad ibn Ibrohim al-Barkandiy qozilik qildi. U ham zohid, ham faqih edi". Bu jumla shuni anglatadiki, Buxoro aholisi islom diniga juda qiyinchilik bilan kirganlar. Aholi yangi dinga o'rganolmay, ilk masjidlarni yoqib yuborgan, masjidlar qayta-qayta qurilgan. Islom dini, shariat qonunlarini amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi qozilik o'rniga bu vazifani islomiyatdan avval oqsoqollar kengashi bajarar edi. Kambag'allar, chorakorlarga bemalol jabr-zulm qilinaverar edi.

Islom dini va shariatida ijtimoiy martabasi, qaysi toifaga mansubligidan qat'i nazar, barcha musulmonlar Alloh taolo oldida teng hisoblanib, qozilar, boshliqlardan shariat hukmlarida aytilgan jazo choralarini barchaga teng qo'llash talab qilinar edi. Bu holat Aflotun va Abu Nasr Forobiy ko'rsatgan ideal jamiyat – fazilatli shahar – davlatlarni eslatar edi. Muhammad Narshaxiy asarida aytilgan qozining zohid ham ekanligi –bu dunyo boylıklaridan voz kechib, nafsini tiyib, hech kimga zulm qilmay, hech kimdan pora olmay, ta'magirlikdan uzoq, pok, halol yashovchi odamning qozilik qilishi ham islom dinidagi bag'rikenglikni, adolat va tolerantlikni bildiradi. Narshaxiy yana yozadi: “Muxtasari Kofiy”ning muallifi marhum Abul-Fazl ibn Muhammad ibn Ahmad al-Marvaziy as-Sulamiy ko'p yillar davomida (Nasr ibn Ahmad davrida) Buxoroda qozilik qildi va zarracha ham o'ziga ayb (gard) yuqtirmadi; u barchaga barobar adolat va insof yuzasidan ish ko'rar hamda uning davrida olimlik va zohidlikda butun dunyoda ham unga teng keladigan kishi yo'q edi. Shundan keyin u sultonga (Nuh ibn Nasrga, hukmronlik davri 943-945-y.) vazir bo'ldi va shahid bo'lib o'ldi” . Sababi – shariatga zid ishga qo'shilmagani edi.

Xullas, Al-Farobiy ijodi bugungi kungacha ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Al-Forobiyning davlat, boshqaruv, ijtimoiy-axloqiy va siyosiy qarashlari haqidagi qarashlari bugungi jamiyat taraqqiyoti uchun ayniqsa muhimdir. Uning asarlari Yevropa Uyg'onish davrining yuksalishiga katta hissa qo'shgan. Forobiy Sharq va G'arb ilm-fani, qadimiy madaniyatini yetkazishda muhim rol o'ynagan.

### **Библиография**

1. Исламская духовность и поэтическая традиция // Философия аль-Фараби и исламская духовность. – Алматы: КИЦ ИФиП МОН РК, 2005. – 298 с. – С. 89–124.
2. Исламская духовность и поэтическая традиция // Философия аль-Фараби и исламская духовность. – Алматы: КИЦ ИФиП МОН РК, 2005. – 298 с. – С. 89–124.
3. Койре А.В. Очерки истории философской мысли. М. 1995. 52-53 б.
4. Форобий. Бахт-саодатга эришув ҳақида //Абу Наср Форобий. Рисолалар. – Т.: Фан, 1975. – Б. 64.
5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Б. 190.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Б. 131